Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 19-sentabr 2026-yil

TALABALARNING OG‘ZAKI NUTQ RAVONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Shaxobova Sitora Baxromovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
sitorashaxobova28@gmail.com



Annotatsiya. Mazkur tezisda talabalarning ingliz tilida og‘zaki nutq ravonligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik usullar tahlil qilinadi. Xususan, muntazam speaking practice, juftlik va guruhli ishlar, rolli o‘yinlar, vaziyatli topshiriqlar, takroriy nutq mashqlari, kommunikativ faoliyat hamda qayta aloqaning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, talabalarning erkin va tabiiy muloqot qilishiga imkon beruvchi student-centered yondashuvning afzalliklari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, nutq ravonligi, speaking fluency, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metod, speaking practice, feedback, student-centered learning.

Аннотация. В данной тезисной работе анализируются эффективные педагогические методы, направленные на развитие беглости устной речи студентов на английском языке. В частности, рассматривается значение регулярной разговорной практики, работы в парах и группах, ролевых игр, ситуативных заданий, повторных речевых упражнений, коммуникативной деятельности и обратной связи. Кроме того, освещаются преимущества студентоцентрированного подхода, создающего условия для свободного и естественного общения студентов.

Ключевые слова: устная речь, беглость речи, беглость устной речи, коммуникативная компетенция, интерактивный метод, разговорная практика, обратная связь, студентоцентрированное обучение.

Abstract. This thesis analyzes effective pedagogical methods aimed at developing

students’ fluency in English oral speech. In particular, it examines the importance of regular speaking practice, pair and group work, role plays, situational tasks, repeated speaking activities, communicative practice, and feedback. In addition, the advantages of a student-centered approach that creates opportunities for students to communicate freely and naturally are highlighted.

Keywords: oral speech, speech fluency, speaking fluency, communicative competence, interactive method, speaking practice, feedback, student-centered learning.

Asosiy qism

Hozirgi zamon chet tilini o’qitishda og’zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. yYangi ingliz tilini o’qitish ta’limida talabalarning faqat grammatik bilimlari emas, balki suhbat davomida o’z fikrlarini mantiqiy ketma - ketlikda va kommunikativ vaizyatga muvofiq bayon eta olishi lozim. CEFR mezonlariga muvofiq og’zaki muloqot jarayonida fikrni ravon va izchil bayon etish, muloqot davomida vaziyatga mos ravishda fikr almashishni davom ettira olish asosiy kompetensiyalar qatoriga kiritiladi.(Council of Europe ,2020) Og’zaki firkni erkin va uzluksiz ifodalash qobiliyati, odatda, talabaning uzoq muddatli to’xtalishlarsiz, fikrni ravon, me’yoriy tempda va mantiqan bog’langan shaklda yetkaza olish ko’nikmasi bilan chambarchas aloqador hisoblanadi.Ravonlik tushunchasi nutqning tezligi bilangina izohlanmaydi.U muloqot jarayonida fikrni yuzaga keltirish, zarur leksik va grammatik vositalarni tezkor tanlay olish va suhbatning uzviyligini saqlab qola olish bilan o’zaro bog’liqlikda namoyon bo’ladi.(Segalowitz,2010).

Og’zaki nutq ravonligini rivojlantirish jarayonida samarali hisoblangan metodlardan biritalabalarni tizimli ravishda og’zaki nutq amaliyotiga jalb etishdir. O’g’zaki nutqni egallash jarayoni faqat nazariy bilimlarni o’zlashtirish orqali amalga oshmaydi, balki doim amaliy mashqlar asosida shakllanadi. Shu bois talabalar mashg’ulot jarayonida ko’proq nutqiy amaliyot bilan shug’ullanish, o’z nuqtayi nazarini bayon qilish va turli nutqiy vaziyatlarda kommunikativ faollik ko’rsatish uchun yetarli shart - sharoit yaratilishi zarur. Mazmunga yo’naltirilgan og’zaki nutq faoliyati, ya’ni e’tibor avvalo grammatik shaklga

emas, kommunikativ mazmunni yetkazishga xizmat qiluvchi topshiriqlar, nutqning ravonligini oshirish jarayonida muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.(Nation&Newton, 2009)

Juftlik va kichik guruh shaklidagi kommunikativ faoliyat ham ravon nutq ko’nikmalarini takomillashtirishda natijador usullardan biri hisoblanadi.Mazkur faoliyat jarayonida har bir talaba katta guruh oldida chiqish qilmasdan, balki kichik muloqot muhitida nutqiy faolligini namoyon etish imkoniga ega bo’ladi. Juftlik hamda guruh asosidagi topshiriqlar talabalarning muloqotdagi faollik darajasini oshiradi.Savol berish orqali muloqotga kirishish va bildirilgan nuqtayi nazarga munosabat bildirish, real muloqotga xos bo’lgan rozilik yoki e’tirozni ifodalash malakasini shakllantirishga yordam beradi. (Harmer, 2025).

Og’zaki nutq ko’nikmalarini shakllantirish jarayonida vaziyatli muloqot va rolli interaktiv topshiriqlar ham muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, doctor - patient, interview - candidate, customer - manager, kabi rolli holatlarda talabalar avval o’zlashtirilgan leksik va grammatik vositalarni yangi nutqiy vaziyatlarda foydalanadilar. Bunday faoliyatlar tayyor maynni mexanik tarzda takrorlashga emas, balki muayyan muloqot sharoitiga mos ravishda mustaqil nutq yaratishga ko’maklashadi. Kommunikativ faoliyatning bosh maqsadi mazmunli axborot almashinuviga erishish, mavjud muammoni bartaraf etish yoki suhbatdoshga muayyan fikrning asoslanganligini dalillar orqali ko’rsatish zarur bo’lganda, og’zaki nutq faoliyati real kommunikativ jarayonga yaqinlashadi.(Richard,2028)

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, talabalrning ingliz tilidagi nutqiy ravonlik darajasini oshirish muntazam tashkil etilgan hamda maqsadli nutqiy faoliyatni talab etadi. Hamkorlikka asoslangan juftlik va guruh mashqlari, rolli o’yinlar , kommunikativ vaziyatli topshiriqlar va muntazam og’zaki mashqlar asosiy metodik vositalar qatoriga kiradi. Bunday holatlarda, pedagog ta’lim jarayonini to’liq boshqaruvchi asosiy subyekt emas, balki talabalarning faol muloqotini tashkil etuvchi va ularga yordam beruvchi o’qituvchi sifatidai ishtirok etishi

lozim. Talabalarga qancha ko‘p mazmunli og‘zaki muloqot imkoniyati yaratilsa, ularning ingliz tilida erkin va ishonchli gapirish kompetensiyasini rivojlantirish uchun shuncha qulay sharoit shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing.

2. Goh, C. C. M., & Burns, A. (2012). Teaching Speaking: A Holistic Approach. Cambridge: Cambridge University Press.

3. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching (5th ed.). Harlow: Pearson Education Limited.

4. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. New York: Routledge.

5. Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge: Cambridge University Press.

6. Segalowitz, N. (2010). Cognitive Bases of Second Language Fluency. New York: Routledge.